

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 7673,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



| | Hajm, mlrd so'm | O'sish sur'ati, % |
|--------------------------------|-----------------|-------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 7673,8 | 102,7 |
| G'uzor tumani | 368,4 | 61,4 |
| Dehqonobod tumani | 81,3 | 103,8 |
| Qamashi tumani | 123,7 | 111,2 |
| Qarshi tumani | 450 | 123,8 |
| Koson tumani | 379,4 | 106,4 |
| Kitob tumani | 232,9 | 102,1 |
| Mirishkor tumani | 65,1 | 116,4 |
| Muborak tumani | 379,8 | 75,8 |
| Nishon tumani | 377,8 | 102,2 |
| Kasbi tumani | 98,9 | 105,5 |
| Ko'kdala tumani | 62,1 | 104,6 |
| Chiroqchi tumani | 312,1 | 110,0 |
| Shahrisabz tumani | 256,1 | 108,7 |
| Yakkabog' tumani | 206,5 | 102,8 |
| Qarshi sh. | 2128,8 | 112,5 |
| Shahrisabz sh. | 248,9 | 107,3 |
| Taqsimilanmaydigan hajm | 1902,0 | 104,9 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,2% ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 145,6 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,3 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 159,6 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,5 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 135,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari


| | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|---|------------------------------------|-----------------------------------|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm | 274,2 | 249,9 | 511,0 |
| o'sish sur'ati, % | 132,8 | 120,1 | 117,1 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm | 4548,3 | 696,3 | 444,1 |
| o'sish sur'ati, % | 160,3 | 180,8 | 164,7 |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm | 949,9 | - | - |
| o'sish sur'ati, % | 116,1 | - | - |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtiloslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtiloslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1820,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 92,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,8 % ga kamayib, 23,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etgan holda 3710,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,9 % ni yoki 2143,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Hajm, mlrd so'm | | | O'sish sur'ati, % da | | |
|-------------------------------|-----------------|----------------------|-----------------|----------------------|----------------------|-----------------|
| | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor | Yirik | Kichik va mikrofirma | Norasmiy sektor |
| Qashqadaryo viloyati | 1820,0 | 3710,6 | 2143,2 | 92,6 | 109,7 | 100,7 |
| G'uzor tumani | 53,7 | 235,3 | 79,4 | 18,1 | 94,5 | 87,5 |
| Dehqonobod tumani | 3,1 | 27,1 | 51,1 | 124,1 | 99,0 | 105,8 |
| Qamashi tumani | 4,4 | 50,9 | 68,4 | 103,3 | 106,3 | 65,8 |
| Qarshi tumani | 134,8 | 243,3 | 71,8 | 158,3 | 149,0 | 95,7 |
| Koson tumani | 50,4 | 232,3 | 96,8 | 85,2 | 108,4 | 108,3 |
| Kitob tumani | 46,3 | 100,3 | 86,3 | 140,2 | 84,3 | 96,2 |
| Mirishkor tumani | 7,0 | 31,9 | 26,2 | 78,6 | 117,3 | 90,4 |
| Muborak tumani | 247,4 | 107,5 | 24,9 | 63,9 | 114,7 | 77,6 |
| Nishon tumani | 294,4 | 59,7 | 23,6 | 98,8 | 95,7 | 58,3 |
| Kasbi tumani | 14,9 | 53,5 | 30,6 | 214,2 | 72,1 | 69,9 |
| Ko'kdala tumani | 0,6 | 53,3 | 8,2 | 34,4 | 103,6 | 94,9 |
| Chiroqchi tumani | 105,3 | 92,7 | 114,1 | 111,6 | 108,6 | 95,1 |
| Shahrisabz tumani | 24,3 | 190,8 | 41,0 | 159,4 | 100,0 | 122,1 |
| Yakkabog' tumani | 0,0 | 137,6 | 61,9 | 71,1 | 92,7 | 80,8 |
| Qarshi sh. | 642,2 | 1390,1 | 96,4 | 130,1 | 108,4 | 82,2 |
| Shahrisabz sh. | 29,5 | 150,2 | 69,2 | 58,0 | 116,7 | 132,7 |
| Taqsimlanmaydigan hajm | 154,6 | 554,1 | 1193,3 | 130,6 | 108,8 | 100,5 |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 214,2 %), Shahrisabz tumanida (159,4 %) va Qarshi tumanida (158,3 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 149,0 %), Shahrisabz shahar (116,7 %) va Muborak tumanida (114,7 %) kuzatildi.



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamin ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalinishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiqa-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
G. Ziyatova
75 221-32-47 (7020)

Manzil:
180100, Qarshi shahri,,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy